

NAZAROV Azamat Sottarovich,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasida dotsenti
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
a.nazarov@iiiau.uz

ДУНЁВИЙ ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ: БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИДА ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ЙЎНАЛИШЛАР ВА УСТУВОР МЕХАНИЗМЛАР

СВЕТСКОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ: СОЦИАЛЬНО- ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПРИОРИТЕТНЫЕ МЕХАНИЗМЫ В УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЯХ

SECULAR STATE GOVERNANCE: SOCIO-PSYCHOLOGICAL TRENDS AND PRIORITY MECHANISMS IN MANAGEMENT DECISIONS

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyoviy davlat boshqaruvining siyosiy, ijtimoiy-psixologik va boshqaruv psixologiyasi nuqtai nazaridan tahlili keltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi» asosida, davlat boshqaruvida fuqarolarning huquq va burchlari, jamoatchilik fikrining shakllanishi, ijtimoiy barqarorlik va davlat xizmatchilarining psixologik kompetentligi muhokama qilinadi. Shuningdek, boshqaruv psixologiyasi nuqtai nazaridan davlat rahbarlarining psixologik omillarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Dunyoviy davlat, ijtimoiy-psixologik tamoyillar, davlat boshqaruvi, jamoatchilik ishtiroki, huquqiy ustuvorlik, ijtimoiy adolat, ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot, fuqarolik jamiyati.

Аннотация: В данной статье проводится анализ светского государственного управления с точки зрения политических, социально-психологических аспектов и психологии управления.

На основе Конституции Республики Узбекистан и «Концепции государственной политики в религиозной сфере и обеспечения свободы совести граждан» рассматриваются права и обязанности граждан в системе государственного управления, формирование общественного мнения, социальная стабильность и психологическая компетентность государственных служащих. Кроме того, с позиции психологии управления анализируется механизм принятия решений государственными лидерами с учетом психологических факторов.

Ключевые слова: Светское государство, социально-психологические принципы, государственное управление, участие общественности, верховенство права, социальная справедливость, образование, здравоохранение, экономика, гражданское общество.

Annotation: This article analyzes secular state governance from the perspectives of political, socio-psychological, and managerial psychology. Based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the «Concept of State Policy in the Religious Sphere and Ensuring Citizens' Freedom of Conscience», the paper discusses citizens' rights and responsibilities in governance, the formation of public opinion, social stability, and the psychological competence of civil servants. Additionally, the article examines the decision-making mechanisms of state leaders based on psychological factors from the perspective of managerial psychology.

Keywords: Secular state, socio-psychological principles, public administration, public participation, rule of law, social justice, education, healthcare, economy, civil society.

Davlat boshqaruvida dunyoviylik prinsiplariga rioya qilish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va davlat xizmatida inson omilini inobatga olish siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida mamlakat suveren, demokratik, huquqiy va dunyoviy davlat ekanligi belgilangan [1].

Boshqaruv psixologiyasi nuqtai nazaridan olib qaraganda, davlat rahbarlari va xizmatchilari ijtimoiy-psixologik jarayonlarni chuqur tushunishi, jamoatchilik fikrini shakllantirish, fuqarolar bilan muloqot qilish va samarali qarorlar qabul qilish mexanizmlarini yaxshi o'zlashtirishi lozim.

Mazkur maqolada davlat boshqaruvida dunyoviylikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik va boshqaruv psixologiyasi mexanizmlari tahlil qilinadi.

Har qanday davlatning samarali boshqaruvi jamiyat manfaatlari va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq. Davlat boshqaruvida dunyoviylik prinsiplariga amal qilish, jamiyatda tenglik va adolat tamoyillarini shakllantirish, fuqarolarning shaxsiy e'tiqodi va vijdon erkinligini himoya qilish demokratik taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda davlat boshqaruvining samaradorligi nafaqat huquqiy va iqtisodiy asoslarga, balki uning ijtimoiy va psixologik omillarga ham qanchalik mos ekanligiga bog'liq. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, fuqarolarning dunyoqarashi va davlatga bo'lgan ishonchi davlat boshqaruvi tizimining muvaffaqiyatini belgilaydi [3].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning dunyoviyligi qat'iy belgilangan bo'lib, bu davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlar va siyosiy jarayonlarning qonun ustuvorligi va umumjamiyat manfaatlari tayanishini anglatadi. Shu munosabat bilan, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillar muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi dunyoviylik prinsiplariga asoslangan bo'lib, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida qaror qabul qilish va ijro etish mexanizmiga ega. Bu davlat faoliyatida ilm-fan, tafakkur erkinligi va inson huquqlarini himoya qilishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada davlat boshqaruvining ijtimoiy-psixologik jihatlari va dunyoviylikni ta'minlash mexanizmlari tahlil qilinadi.

Mazkur maqolada dunyoviy davlat boshqaruvining siyosiy va ijtimoiy-psixologik jihatlari keng yoritilib, davlat idoralari jamoatchilikka ta'siri, fuqarolarning davlat qarorlariga munosabati va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari tahlil qilinadi.

Dunyoviy davlat boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy va psixologik tamoyillariga qo'yidagi jihatlari mavjud:

Siyosiy tamoyillar- dunyoviy davlat boshqaruvi bir necha muhim ijtimoiy-siyosiy tamoyillarga asoslanadi:

- Huquqiy ustuvorlik – davlat organlari va fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilishi shart.
- Ma'furaviy neytrallik – hech bir diniy yoki siyosiy mafkura davlat boshqaruvida ustunlikka ega bo'lmazligi lozim.
- Fuqarolarning teng huquqliligi – irqi, millati, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha fuqarolar teng huquqlarga ega.
- Ochiqlik va shaffoflik – davlat organlari fuqarolar oldida hisobdor bo'lishi lozim.
- Jamoatchilik ishtiroki – fuqarolar va jamoat tashkilotlari davlat qarorlarining shakllanishida faol ishtirok etishi zarur.
- Tanqidiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirish – fuqarolarning davlat siyosatiga ratsional yondashuvini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.
- Ijtimoiy adolat va tenglik – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi va ijtimoiy-iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash [2].

Boshqaruvning tashkiliy-psixologik tamoyillari;

- Qaror qabul qilish psixologiyasi – davlat xizmatchilari va rahbarlar ijtimoiy munosabatlar va psixologik jarayonlarni hisobga olgan holda qaror qabul qilishi lozim.
- Jamoatchilik fikrini shakllantirish – davlat siyosatining jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishi muhim.
- Rahbarlik uslublari – samarali boshqaruvda avtoritar, demokratiyaviy va kollegial rahbarlik uslublari foydalanish.
- Motivatsiya va ijtimoiy ta'sir – davlat xizmatchilarida mas'uliyat va fuqarolarga xizmat qilish ruhiyatini shakllantirish.

Davlat boshqaruvida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni chuqur anglash va ularni inobatga olish muhim ahamiyatga ega:

- Fuqarolar ongi va dunyoqarashi – davlat qarorlari jamoatchilik tomonidan qanday qabul qilinishi, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

- Davlatga bo'lgan ishonch – davlat organlari ishonchli, adolatli va shaffof faoliyat yuritgan taqdirdagina fuqarolar uning qarorlarini qo'llab-quvvatlaydi.

- Jamoatchilik fikri va uni shakllantirish mexanizmlari – ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va davlat organlari orqali jamoatchilik fikriga ta'sir etish imkoniyatlari [5: 187].

Dunyoviylikni davlat boshqaruvida samarali ta'minlash uchun bir qator mexanizmlar mavjud.

Huquqiy va ma'muriy mexanizmlar:

- Qonunchilik bazasini takomillashtirish va davlat boshqaruvida dunyoviylikni kafolatlaydigan huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish.

- Sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash va siyosiy hamda diniy ta'sirlardan himoya qilish.

- Davlat xizmatchilarining shaxsiy diniy qarashlari ularning professional faoliyatiga ta'sir etmasligini ta'minlash.

Jamoatchilik va fuqarolar ishtiroki:

- Fuqarolarning davlat qarorlari qabul qilish jarayonidagi ishtirokiga sharoit yaratish.

- Davlat tashkilotlari faoliyati haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish va ochiq muloqot platformalarini joriy etish.

- Davlat xizmatchilari uchun dunyoviylik va fuqarolik jamiyati asoslarini tushuntiruvchi malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish.

Iqtisodiyot va jamiyat rivojida dunyoviy yondashuv:

- Davlat iqtisodiy siyosatini empirik dalillar, tadqiqotlar va ratsional yondashuv asosida yuritishi kerak.

- Tadbirkorlik faoliyatida qonun ustuvorligi va adolatni ta'minlash.

- Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash.

Dunyoviy davlat boshqaruvida qaror qabul qilishda ijtimoiy axloq va xulq-atvor normalari jamiyatda barqarorlik, hamjihatlik va insonparvarlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu normalarni shakllantirish tizimli yondashuvni talab etadi va quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Dunyoviylik va insonparvarlik asoslari:

- Barcha shaxslar o'rtasida, ularning e'tiqodi va qarashlaridan qat'i nazar, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni shakllantirish.

- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan axloqiy prinsiplarni mustahkamlash.

- Har bir shaxsning vijdon erkinligini hurmat qilish va uni himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirish.

Axloqiy normalarning jamiyatda uyg'un tarzda shakllanishi:

- Ijtimoiy axloq normalarini milliy va diniy qadriyatlarni hisobga olgan holda dunyoviy tamoyillar asosida targ'ib qilish.

- Oilaviy va maishiy munosabatlarda axloqiy me'yorlarni shakllantirish va mustahkamlash.

- Ijtimoiy adolatga asoslangan axloq normalarining jamiyat manfaatlariga mos kelishiga erishish.

Insonparvarlik g'oyalari ommalashtirish:

- Insonparvarlik va bag'rikenglikka oid g'oyalarni jamiyatning barcha qatlamlari o'rtasida targ'ib qilish.

- Ekologik axloqni shakllantirish: tabiat, hayvonot va o'simlik dunyosini asrashga yo'naltirilgan madaniyatni rivojlantirish.

- Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tenglik, hamkorlik, adolat va o'zaro hurmat prinsiplari asosida yo'lga qo'yish.

Jamoaviy hamjihatlik va totuvlikni ta'minlash:

- Diniy e'tiqodidan qat'i nazar, barcha fuqarolar o'rtasida umummilliy qadriyatlar asosida hamjihatlikni mustahkamlash.

- Jamoatchilik muhokamalarini ochiq, asosli va o'zaro hurmat asosida tashkil etish.

- Jamiyat a'zolari o'rtasida ochiq muloqotni rivojlantirish va o'zaro tushunish muhitini yaratish.

Huquqiy va axloqiy normalarning uyg'unligi:

- Ijtimoiy munosabatlar tartibini ta'minlashda huquqiy va axloqiy normalarning o'zaro moslashuvchanligini kuchaytirish.

- Huquqlarni o'zboshimchalik bilan amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik va jamiyatda qonuniylik tamoyillarini mustahkamlash.

Bu tizim ijtimoiy axloq va xulq-atvor normalarini shakllantirishda mukammal yondashuvni ta'minlaydi va jamiyatda totuvlik, tenglik va insonparvarlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dunyoviylik tamoyilini ijtimoiy soha yo'nalishlaridan asosan ta'lim va tibbiyot sohasini alohida ahamiyat kasb etadi. Kuzatuvlar bugungi kunda ko'proq shu sohada faoliyat yurituvchilarni sonini ko'pligi hamda din va davlat munosabatlarni tartibga keltirishda aynan shu sohalarda ma'lum muammolarga duch kelinmoqda. Ta'lim va tibbiyot sohasida dunyoviylikning qo'yidagi faoliyat yo'nalishlari belgilash ahamiyatli:

Ta'lim tizimida dunyoviylik:

- Ilmiy bilimlarni shakllantirish va mantiqiy-tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish.
- Ta'lim muassasalarida turli dunyoqarashlarga nisbatan bag'rikeng muhit yaratish [2].

Tibbiyot sohasida dunyoviy yondashuv;

- Faqat klinik va ilmiy asoslangan davolash usullaridan foydalanish.
- Aholining tibbiy bilimlarini oshirish va salomatlikni himoya qilish madaniyatini rivojlantirish.
- Jamiyatda tibbiyotga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish [2].

Davlat boshqaruvida dunyoviylik tamoyillariga amal qilish fuqarolar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy barqarorlik va umumiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy-psixologik omillar esa davlat qarorlarining jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi va davlatga bo'lgan ishonchni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, davlat boshqaruvini takomillashtirish jarayonida huquqiy mexanizmlar, jamoatchilik ishtiroki va ta'lim-tarbiya tizimida dunyoviylikni mustahkamlash asosiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2023.
2. Fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi. 2025-yil 25-fevral, O'RQ-1037-son.
3. O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5491534>.
4. Поршнев А.Г. Социальная психология и управление. – Москва: Академический проект, 2018.
5. Ломов Б.Ф. Психология и системный анализ. – Санкт-Петербург: Наука, 2021.
6. Фукуяма Ф. Государственное строительство: мировые тенденции. – Москва: АСТ, 2019.